

**O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI O'RTASIDA YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLARNING BO'SH
TURGAN PUL MABLAG'LARINI JALB QILISH BO'YICHA RAQOBAT**

Raxmonova Nilufar Umedovna
Toshkent moliya instituti Magistranti

Annotatsiya:

Maqolada yuridik va jismoniy shaxslarni pul mablag'larini jalb qilish bo'yicha banklar tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar olib borish to'g'risida, aholiga omonatlar taqdim etishdagi cheklovlar, imtiyozlar va shuningdek Markaziy bank tomonidan tijorat banklari depozitlar jalb qilishdagi xarakterlarini nazorati, qonun va farmoyishlari haqidagi izlanishlarni yoritib boriladi.

Kalit so'zlar: aholi omonatlari, omonatchi, depozitlar, bank resurslari, deposit operatsiyalari, depozitorlar, tijorat banklari, deposit qo'yishning miqdoriy chegarasi xususiyatlari.

Kirish

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida va makroiqtisodiy jarayonlarni tartibga solish borasida amalga oshirilgan jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida, yangi shart-sharoitlarga mos pul-kredit siyosatini yuritish va uni sifat jihatdan takomillashtirishni hamda bu yo'nalishda aniq belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo etadi va bunga imkoniyat yaratadi. Bozor munosabatlariga o'tilgach, aholiga bank xizmatlarining ko'rsatilishini rivojlantirish va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, mijozlarning bank depozitlariga bo'lgan ishonchini qozonish va ular uchun barcha qulayliklarni yaratish, shuningdek, xizmatlar turi, sifati va tezkorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun tijorat banklari zamonaviy xizmatlarini joriy etishga, yangi texnologiyalardan foydalanishga yanada ko'proq ehtiyoj sezmoqdalar.

Bank resurslari tarkibida aholining omonat qo'yilmalari muhim rol tutadi. Ular to'liq summaga yoki bo'lib-bo'lib qo'yiladi va berilishi mumkin. Omonatchi va bank o'rtasidagi mablag' ko'yishi bilan bog'lik munosabat omonat daftarchasini berish bilan tasdiqlanadi. Banklar to'lovchilik asosida turli xil maqsadli qo'yilmalarni, muddatli yoki talab kilish hamda olish mumkin bo'lgan jamg'armalar qabul qiladilar.

Material va method

Bank resurslarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin. Bular, banklarning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardir. Jalb qilingan resurslarni ikkiga bo'linadi – bu jalb qilingan depozitlar, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurlardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli xil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'lik bo'lganligi sababli passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga resurslar o'z navbatida banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

Depozit operatsiyalar - banklarning depozitorlar bilan tuzgan shartnomalari asosida depozit maqsadlariga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini muayyan muddatga jalb etish hamda saqlashga doir operatsiyalaridir.

Depozitor bankka kela olmagan yoki u depozit operatsiyalariga doir zarur hujjatlarni mustaqil ravishda to'ldira olmagan hollarda uning depoziti bo'yicha operatsiyalar ishonchli shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Uning vakolati amaldagi qonunchilikka muvofiq asoslangan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslar depozit operatsiyalarning sub'ektlari bo'la oladi. Depozitlar naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda qo'yilishi mumkin. Yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan qo'yiladigan depozitning eng kam miqdori har bir bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Bank qabul qiladigan depozitning eng ko'p miqdori chegaralanmaydi. Barcha depozitlar joriy mablag'lar tarzida qabul qilinadi va shu asosda to'lanadi. Depozitlar tratta, cheklar, pul topshiriqnomalari, davlat xazina kafolatlari va boshqa shakllarda kelib tushsa, ular undirib olish sharti bilan qabul qilinadi, biroq, summa bankning hisobvarag'iga kelib tushmaguncha ushbu depozitga kiritilgan hisoblanmaydi. Depozitlar jismoniy shaxslardan, shu bilan birga 14 yoshga to'lgan yoshlardan qabul qilinishi mumkin. O'z nomiga omonat qo'ygan, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan balog'atga etmagan yoshlar o'z omonatlarini mustaqil ravishda tasarruf etadilar. Layoqatli har qanday jismoniy shaxslar balog'atga yetmagan shaxs nomiga omonat qo'yishi mumkin. Har qanday vasiy va ishonchli shaxs ham uning vasiyligiga topshirilgan shaxs nomiga depozit hisobvarag'i ochishi mumkin.

Banklar mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, barcha mamlakatlarda bu jarayon Markaziy bank tomonidan tartibga solinib turiladi. Jalb qilingan mablag'lar tijorat banklari kredit resurslarining asosiy qismini tashkil qiladi. Joriy yilning 19 iyun kuni parlament quyi palatasining Budget va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi tomonidan aholining bo'sh pul mablag'larini real iqtisodiyotga jalb qilish yuzasidan tayyorlangan takliflari siyosiy partiyalar fraksiyalari vakillari ishtirokida muhokama qilindi. Parlament saytida yozilishicha, iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, moliya va bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshirish hamda kapital bozorini rivojlantirish maqsadida aholining bo'sh pul mablag'larini iqtisodiyotga jalb qilish masalasi deputatlar e'tibor markazida bo'ldi.

Ekspertlar fikricha, "xufiyona iqtisodiyot"da aylantirilayotgan mablag'larni jalb qilish uchun ular legalizatsiya qilinishi, belgilangan davr uchun "kapital amnistiyasi" e'lon qilinishi yaxshi natija beradi. Mazkur amaliyot Rossiya, Gruziya, Qozog'iston va boshqa davlatlarda "moliyaviy amnistiya" sifatida qonun shaklida qabul qilingan. Shu sababli, deputatlar fikricha, O'zbekistonda ham kapital amnistiyasi parlament tomonidan qonun shaklida qabul qilinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qonun shaklida qabul qilingan hujjat fuqarolarda ko'proq ishonch uyg'otadi va parlament nazorati uchun obekt bo'ladi. Bugungi kunda bank tizimiga bo'lgan aholi ishonchini oshirish va jozibador bank omonatlarini taklif qilish bo'sh pul mablag'larini jalb qilishda asosiy omil hisoblanadi. Deputatlarning fikricha, omonat foizlarini real inflatsiya darajalaridan kelib chiqib, bozor o'zi o'rnatishi kerak. Shuningdek, aholi omonatlarini himoyalash tizimini rivojlantirish ham muhim bo'lib, xalqaro andozalarga javob berishi aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Natijalar

Markaziy bank tomonidan chop etilgan O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi, xalqaro investitsion holati va tashqi qarzi to'g'risidagi nashriga ko'ra, bugungi kunda mamlakatda faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar va aholining oxirgi uch yildagi depozitlar qoldig'i 11,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi. Ta'kidlanishicha, mazkur mablag' oxirgi uch yilda chet eldan yuborilgan pul o'tkazmalaridan iborat bo'lib, uning asosiy qismi aholi uyida saqlanayotgan yoki bugungi kunda asosan

banklarga rasmiy sotilmasdan ulushi 50 foizdan ortiq deb taxmin qilinayotgan “xufiyona iqtisodiyot”da aylantirilayotgan bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, ishtirokchilar respublikada fuqarolar daromadlarini majburiy deklaratsiya qilish tizimini joriy etish bo‘yicha qo‘mita taklifini muhokama qildilar. Ushbu tizim aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlab, odilona soliq solish tizimini yaratadi va norasmiy iqtisodiyotni aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, majburiy deklaratsiya qilish jarayoni davlat g‘aznasini to‘ldirish bilan birga korrupsiya va xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashishga hamda mamlakatimizning xalqaro ijtimoiy rivojlanish reytingi o‘shishiga yordam beradi.

Xulosa va takliflar

Bizningcha, Yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha banklararo raqobatni yanada mukammallashtirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- 1) depozit, kredit va boshqa operatsiyalarini bankning barqarorligini ta‘minlashi bo‘yicha bog‘likligini yanada kuchaytirishi hamda risklarni kamaytirish uchun resurslarni diversifikatsiya qilinish lozim;
 - 2) depozit portfelni turkumlash (mijozlar bo‘yicha) shuning bilan birgalikda mijozlarni turlari bo‘yicha individual yo‘nalish olib borish;
 - 3) Pul-kredit siyosatining faol bosqichga o‘tish sharoitida bank tizimidagi likvidlikning maqsadli operatsion ko‘rsatkichlarga mosligini ta‘minlashda ochiq bozor operatsiyalarini doimiy ravishda o‘tkazib borish lozim. Qolaversa banklararo pul bozorining yagona elektron platformasini ishga tushirish orqali tijorat banklarining bo‘sh pul mablag‘lari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yagona platformaga jamlash va bozor ishtirokchilari uchun foiz stavkalarini dinamikasini kuzatish imkonini yaratish mumkin bu esa foiz stavkalarining bozor mexanizmlari asosida shakllanishiga xizmat qiladi.
 - 4) Bank xodimlarini to‘g‘ri tayinlash va vakolatlarini taqsimlash. Ya‘ni, agar tijorat banklarida xodimlarni ularning istiqbolini hisobga olgan holda tayinlash va mehnat qobiliyati va vakolatlarni to‘g‘ri taqsimlash, bu rivojlanishga olib keladi bankning. Tor ma‘noda bilim va ko‘nikmalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir bank depozitlari siyosatini ishlab chiqishda malakali kadrlar jalb qilish kerak.
- Xulosa qilib Shuni aytishimiz mumkinki bozor iqtisodiyotiga asoslangan barcha mamlakatlarda tijorat banklar iqtisodiyotining to‘lov mexanizmida yetakchi o‘rin tutadi. Bank resurslarini tashkil etish muammosi bank faoliyatini bir maromda olib borish uchun birinchi darajali hisoblanadi. Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi. Muddatli depozitlar depozitlarning boshqa turlariga nisbatan bankka barqaror resurs bazasini ta‘minlaydi. Shundan kelib chiqib resurslar barqarorligi masalalarini ko‘rayotganda omonatlarni kafolatlanishiga ham e‘tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. H.P.Abulqosimov, O.Ya.Xamrayev “Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish” o‘quv qo‘llanma Toshkent «iqtisod-moliya» 2014, 164-bet.
2. A.Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. O‘rmonov, P. Xoshimov, F. Egamberdiyev iqtisodiy ta‘limotlar tarixi (o‘quv qo‘llanma) Toshkent – 2005 329-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi

- farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son, 70-modda, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018yil, 06\18\5483/1594-son.
4. Murojaat (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so'zi gazetasining 23 dekabr soni
 5. FATF (2020), Guidance on Digital Identity, FATF, Paris, www.fatfgafi.org/publications/documents/digital-identity-guidance.htm
 6. https://uidai.gov.in/images/commdoc/valid_documents_list.pdf.
 7. Всемирный банк. 2017 г. «Принципы идентификации в целях устойчивого развития: к эпохе цифровых технологий». Вашингтон, округ Колумбия: Группа Всемирного банка <http://id4d.worldbank.org/principles>. Перечень подписавших организаций приводится на сайте.
 8. УВКБ ООН «Руководство по управлению регистрацией и определением идентичности» <https://www.unhcr.org/registration-guidancechapter5/registration/>